



A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF DEBATES AND CONTROVERSIES SURROUNDING IBN ARABI'S DOCTRINE

Mohlaroyim Yarashova

Lecturer at the Department of Foreign Languages and Social Sciences

Asian International University

e-mail: mohlaroyimyarashova@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Ibn Arabi, Sufism, history of philosophy, Sharia, Wahdat al-Wujud, batini analysis, social stability, elitist thinking, the perfect human.

Received: 23.05.26

Accepted: 24.05.26

Published: 25.05.26

Abstract: This article analyzes the role of Muhyiddin ibn Arabi's philosophical and Sufi heritage in the Islamic world and the Western intellectual environment. The author reveals the socio-philosophical reasons for the debates surrounding Ibn Arabi's teachings. In particular, the contradictions between traditional Sharia scholars and the thinker's metaphysical views are explored through the prism of the dialectics of "mass consciousness" and "elitist thinking."

IBN ARABIY TA'LIMOTI ATROFIDAGI BAHS VA MUNOZARALARNING IJTIMOYIY-FALSAFIY TAHLILI

Mohlaroyim Yarashova

Osiyo xalqaro universiteti Xorijiy til va ijtimoiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi

e.pochta: mohlaroyimyarashova@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ibn Arabiy, tasavvuf, falsafa tarixi, shariat, Vahdat ul-vujud, botiniy tahlil, ijtimoiy barqarorlik, elitar tafakkur, komil inson.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhyiddin ibn Arabiy falsafiy va tasavvufiy merosining islom olami hamda G'arb intellektual muhitidagi o'rni tahlil qilinadi. Muallif Ibn Arabiy ta'limoti atrofidagi bahs-munozaralarning ijtimoiy-falsafiy sabablarini ochib beradi. Xususan, an'anaviy shariat peshvolari va mutafakkirning metafizik qarashlari o'rtasidagi ziddiyatlar "ommaviy ong" va "elitar tafakkur" dialektikasi prizmasi orqali tadqiq etilgan.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ДИСКУССИЙ И СПОРОВ ВОКРУГ УЧЕНИЯ ИБН АРАБИ

Мохларойим Ярашова

Преподаватель кафедры иностранных языков и общественных наук

Азиатского международного университета

e-mail: mohlaroyimyarashova@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Ибн Араби, суфизм, история философии, шариат, Вахдат ал-вуджуд, батынийский анализ, социальная стабильность, элитарное мышление, совершенный человек.

Аннотация: В данной статье анализируется роль философского и суфийского наследия Мухиддина ибн Араби в исламском мире и западной интеллектуальной среде. Автор раскрывает социально-философские причины дискуссий вокруг учения Ибн Араби. В частности, противоречия между традиционными представителями шариата и метафизическими взглядами мыслителя исследуются через призму диалектики «массового сознания» и «элитарного мышления».

Kirish. Muhyiddin ibn Arabiy yashab ijod qilgan davr islom tafakkuri tarixida shariat namoyandalari hamda an'anaviy faqihlarning tasavvufiy dunyoqarashga nisbatan keskin tanqidiy munosabati va shiddatli g'oyaviy kurashlari bilan xarakterlanadi. Mazkur intellektual muxolifat vakillari tasavvuf maktabi namoyandalarining innovatsion g'oyalarini tahlil qilar ekanlar, ushbu qarashlarning mavjud huquqiy-mazhabiy qoliplarga mos kelmaydigan jihatlarini asosiy hujum ob'ekti sifatida tanladilar. Xususan, faqihlar mutasavvif va so'fiylarning o'zlikni anglash hamda borliq mohiyatini idrok etish borasidagi metafizik talqinlarini islomiy aqidaga zid deb hisobladilar. Ushbu g'oyaviy to'qnashuv natijasida tasavvufiy qarashlar ikki yirik ayblov ostida qoldi:

“Ta'til” (تعطيل – ta'teel): Ilohiy sifatlarni inkor etish yoki Xudoni borliqdan butunlay ajratib qo'yish orqali uni bilib bo'lmaslikda ayblash;

“Zandaqa” (زندقة – zandaqa): Islomning huquqiy va ma'naviy me'yorlaridan chekinish hamda e'tiqodiy begonalashuv.

An'anaviy shariat himoyachilari so'fiylarning koinot va inson haqidagi yangicha simbolik talqinlarini diniy asoslarga tahdid deb baholaganlar. Bu esa o'z navbatida, islom jamiyatida ortodoksal huquqiy tafakkur va ezoterik falsafiy maktablar o'rtasidagi dialektik ziddiyatning yanada chuqurlashishiga sabab bo'lgan.

Adabiyotlar tahlili. Muxolif yoʻnalish: Ibn Taymiyaning "Jome'ur rasoyil" va "Ibtalu vahdatil vujud" asarlari tahlil qilinib, uning "Vahdat ul-vujud" nazariyasiga nisbatan keskin raddiyalari koʻrib chiqildi. Shamsuddin az-Zahabiyning "Fusus al-hikam"ga bergan "kufr" sifatidagi bahosi va Burhonuddin al-Baqoiyning "Tanbihu-l-gabiy" asaridagi esxatologik eʼtirozlari oʻrganildi.

Himoyachi yoʻnalish: Jaloliddin Rumi va Sadriddin Qunaviyning maʼnaviy uygʻunligi, Abdurahmon Jomiyning "Naqd al-nusus" asaridagi nazariy tizimlashtirishlari hamda Jaloliddin Suyutiyning "Tanbih al-gʻabiy" risolasidagi huquqiy himoyasi tahlil etildi.

Ibn Arabiy gʻoyalari va taʼlimotini qatʼiy rad etgan, ularni "takfir" (kufr – تكفير) tushunchasi bilan qoralagan hamda keyinchalik asarlari Ibn Arabiyi inkor etishda asosiy manba boʻlib xizmat qilgan mashhur shayxlardan biri Ibn Taymiya (1263–1328) hisoblanadi. Shuni alohida taʼkidlash lozimki, mazkur raddiyalar shunchaki yuzaki tanqid emas, balki chuqur falsafiy va diniy-huquqiy asoslarga ega boʻlgan tizimli gʻoyaviy qarshilikdir. Ibn Taymiya oʻz raddiyalarini oʻzi mansub boʻlgan hanbaliylik mazhabi nuqtai nazaridan bayon etgan. Ibn Taymiya (1263–1328) Ibn Arabiy va uning izdoshlarini Qurʼonni botiniy (ekzegatika) tahlil qiladigan shialarga mansub deb hisoblaydi. Shuningdek, u Ibn Arabiyi "xudosiz shialar"dan boʻlgan "Ixvonus safo" guruhi yoʻlidan borgan, yaʼni "paygʻambarlik maqomiga chiqish yoʻli ochiq" deb hisoblovchilar guruhiga ergashganlardan biri sifatida taʼriflaydi.

Ibn Arabiyi rad etishda muhim oʻrin tutganlardan yana biri — Ibn Taymiyaning shogirdi, mashhur tarixchi va muhaddis Shamsuddin az-Zahabiy (1274–1348) hisoblanadi. U Ibn Arabiyning eng mashhur va munozarali asari — "Fusus al-hikam" ("Hikmatlar shodalari") toʻgʻrisida quyidagi keskin xulosani beradi: "Agar bu kitobda kufr yoʻq deb hisoblasak, demak bu dunyoda ham kufr yoʻq deb hisoblashimizga toʻgʻri keladi". Az-Zahabiyning ushbu tanqidi zamirida quyidagi falsafiy muammolar yotadi: Az-Zahabiy kabi anʼanaviylik tarafdorlari Ibn Arabiy qoʻllagan ramziy va metafizik tushunchalarni (masalan, koinotning Xudo bilan aynanligi) shariatning zohiriy mezonlari bilan oʻlchaganlar. Ularning nazarida, borliqning yaxlitligi (Vahdat ul-vujud) gʻoyasi Xoliq va maxluq oʻrtasidagi farqni yoʻqotib yuboradi.

Ibn Taymiya va az-Zahabiy kabi faqihlarning keskin "takfir" (kufrda ayblash)lariga qaramay, islom olamining eng moʻtabar mutafakkirlari Ibn Arabiyi "Shayxul Akbar" (Eng buyuk shayx) sifatida eʼtirof etishgan. Ularning himoyasi asosan quyidagi uchta yoʻnalishda namoyon boʻladi: Jaloliddin Rumi (1207–1273): Ishq va kashf uygʻunligi. Mavlono Rumi Ibn Arabiy bilan bevosita uchrashmagan boʻlsa-da, uning eng yaqin shogirdi Sadriddin Qunaviy bilan doimiy muloqotda boʻlgan. Rumiyaning "Masnaviy" asari mohiyatiga koʻra Ibn Arabiyning "Vahdat ul-vujud" taʼlimotining sheʼriy va badiiy jilosidir. Rumi uchun Ibn Arabiy

g'oyalari "kufr" emas, balki "ilohiy ishq sirlari" edi. Rumi tanqidchilarga qarata insonning ichki ma'naviy olami qoliplarga sig'masligini, Ibn Arabiyning so'zlari faqat "ahli hol" (ma'naviy tajribaga ega bo'lganlar) uchungina ayon bo'lishini ta'kidlagan.

Abdurahmon Jomiy (1414–1492): Nazariy himoya va sharhchilik. Jomiy Ibn Arabiy ta'limotining eng buyuk tizimlashtiruvchilaridan biri hisoblanadi. Uning "Naqd al-nusus" va "Lavoyih" asarlari Ibn Arabiy g'oyalarini shariat mezonlari bilan uyg'unlashtirishga xizmat qilgan. Jomiy Ibn Taymiya kabi munaqqidlarning ayblovlari javoban, Ibn Arabiy asarlaridagi murakkab iboralarni "istoraviy" (majoziy) deb tushunish kerakligini isbotlab berdi. Uning fikricha, Ibn Arabiyni tushunmaslik — mutafakkirning xatosi emas, balki o'quvchining ma'naviy saviyasi pastligidan dalolatdir. Jaloliddin Suyutiy (1445–1505): Shariat nuqtai nazaridan himoya. Mashhur olim as-Suyutiy Ibn Arabiy haqida maxsus "Tanbih al-g'abiy bi-tabriat Ibn al-Arabiy" ("Ibn Arabiyni oqlash orqali g'ofillarni ogohlantirish") nomli risola yozgan. Suyutiy Ibn Arabiyni "valiyulloh" (Allohning do'sti) deb atab, uning asarlaridagi ba'zi tushunarsiz joylar "ilohiy jazba" (ekstaz) holatida aytilganini va ularni oddiy mantiq bilan hukm qilish mumkin emasligini ilmiy asoslab bergan.

Tadqiqot metodologiyasi.

- Dialektik tahlil: "Ommaviy ong" (faqihlar) va "elitar tafakkur" (mutasavviflar) o'rtasidagi qarama-qarshiliklar dialektika qonuniyatlari asosida o'rganildi.

- Germenevtik metod: Ibn Arabiy asarlaridagi ramziy va metafizik tushunchalarning botiniy (ekzegatika) ma'nolari tahlil qilindi.

- Qiyosiy-tarixiy yondashuv: Turli asrlarda yashagan faqih va faylasuflarning mutafakkir merosiga munosabati tarixiy kontekstda qiyoslandi.

- Etimologik tahlil: "Azob" (عذاب) va "shirinlik" (عذوبة) so'zlarining o'zagi tahlil qilinib, esxatologik qarashlarning lisoniy asoslari ko'rsatib berildi.

Ibn Arabiy shaxsi va ijodi atrofidagi bu qutbli qarashlar islom sivilizatsiyasida shariat (huquq) va haqiqat (metafizika) o'rtasidagi dialektik muvozanatni ifodalaydi. Himoyachilarning munosabati shuni ko'rsatadiki, Ibn Arabiy falsafasi islomiy aqidani buzish emas, balki uni insonning ichki ma'naviy olami orqali chuqurroq anglashga qaratilgan oliy metodologiyadir.

Tahlil va natija. Islom falsafasi tarixida Muhyiddin ibn Arabiy merosiga nisbatan muxoliflik faqat Ibn Taymiya bilan cheklanib qolmay, keyingi asrlarda ham davom etdi. Xususan, Sa'duddin at-Taftazoniy (1322–1390) va Burhonuddin al-Baqoiy (1406–1480) kabi mutafakkirlar Ibn Arabiy va uning izdoshlarini keskin tanqid qilganlar. Al-Baqoiy Ibn Arabiy va uning safdoshi Umar ibn al-Faridning falsafiy-tasavvufiy g'oyalarini qoralab, "Tanbihu-l-gabiy

bi takfiri Umar ibn al-Farid va Ibn Arabiy” (“Bilimsizlarni Umar ibn al-Farid va Ibn Arabiylarning kufridan o'goh etish”) deb nomlangan asarini yozdi. Muallif o'z asarida Ibn Arabiyga baho berishda ikkilanayotganlarni unga nisbatan salbiy munosabatda bo'lishga va uning yo'lidan qaytishga chaqiradi. Oxirat va daxshatli azob tushunchasining inkor etilishi: Ibn Arabiy o'zining metafizik qarashlarida do'zax azobi vaqtinchalik ekanligi yoki u ma'lum muddatdan so'ng o'ziga xos "rohat" turiga aylanishi haqidagi g'oyalarni ilgari surgan. Al-Baqoiy buni qattiq qoralab, shunday yozadi: “Ibn Arabiy odamlarni u dunyoda do'zax azobi bo'lmaydi, agar bo'lganda ham u azob emas, maxsus rohat turida bo'ladi, deb ishontiradi”. Baqoiy Ibn Arabiyning barcha dinlar aslan yagona manbaga ega ekanligi haqidagi qarashlarini islomiy eksklyuzivlikka (islomning yagonaligiga) zid deb biladi. Uning fikricha, bunday ta'limot Qur'on oyatlarini haddan tashqari majoziy va asossiz sharhlashga (ta'vil) olib keladi.

Shunday qilib, Ibn Arabiy va uning izdoshlari tomonidan ilgari surilgan esxatologik qarashlar — shunchaki teologik farazlar emas, balki ilohiy gumanizmning yuqori cho'qqisidir. Al-Baqoiy kabi munaqqidlar do'zaxni ijtimoiy nazorat quroli sifatida ko'rgan bo'lsalar, Ibn Arabiy maktabi uni borliqning umumiy muvozanati va ilohiy rahmatning universal tajallisi sifatida talqin etgan. Bu ziddiyat islom tafakkurida 'Qo'rquv falsafasi' va 'Umid falsafasi' o'rtasidagi doimiy kurashni aks ettiradi.

Xulosa. Muhyiddin ibn Arabiy merosi va uning atrofidagi ko'p asrlik bahs-munozaralarni ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish natijasida quyidagi fundamental xulosalarga kelindi: Birinchidan, Ibn Arabiy ta'limoti islom tafakkuri tarixida shunchaki mistik qarashlar majmuasi emas, balki tasavvufni yaxlit ontologik tizim darajasiga ko'targan intellektual burilish nuqtasidir. Uning "Vahdat ul-vujud" nazariyasi borliqni Yaratuvchi va yaratilganlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikda tushuntirib, insonni ushbu iyerarxiyaning markaziy bo'g'ini sifatida namoyon etdi.

Ikkinchidan, Ibn Taymiya, az-Zahabiy va al-Baqoiy kabi munaqqidlar tomonidan bildirilgan keskin raddiyalar islom sivilizatsiyasidagi "huquqiy-pragmatik" (shariat) va "metafizik-intuiv" (tasavvuf) dunyoqarashlar o'rtasidagi dialektik ziddiyatni aks ettiradi. Ushbu tanqidlarning negizida nafaqat aqidaviy farqlar, balki jamiyatning ma'naviy barqarorligini saqlash va "ommaviy ong"ni murakkab falsafiy talqinlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan adashishlardan himoya qilish istagi yotadi.

Uchinchidan, Ibn Arabiy maktabining Abdulkarim Jiliy va Ismoil Haqqiy Burseviiy kabi vakillari tomonidan olib borilgan mudofaa strategiyasi mutafakkir g'oyalarining ilohiy gumanizm bilan sug'orilganligini ko'rsatadi. Do'zax azobi va oxirat masalalaridagi metafizik optimizm Allohning rahmatini barcha narsadan ustun qo'yuvchi universal falsafiy prinsiplarga

asoslanadi. Bu esa islom tafakkurida "qo'rquv pedagogikasi"dan "ishq va umid pedagogikasi"ga o'tish imkonini berdi.

To'rtinchidan, Ibn Arabiy ta'limotining "elitar tafakkur"ga asoslanganligi uni asrlar davomida ziyolilar va mutafakkirlar uchun intellektual "ohanrabo"ga aylantirdi. Jaloliddin Rumiy va Abdurahmon Jomiy kabi mutafakkirlarning ijobiy munosabatlari ushbu merosning nafaqat diniy, balki umuminsoniy ma'naviy qadriyatlar manbai ekanligini tasdiqlaydi. Ibn Arabiy atrofidagi bahslar bugungi kun uchun ham dolzarbdir. Zero, mutafakkir ilgari surgan "Kamil inson" g'oyasi va borliqni yaxlitlikda ko'rish tamoyili zamonaviy dunyodagi ma'naviy inqirozlarni bartaraf etish, sivilizatsiyalararo muloqotni o'rnatish va jamiyatda diniy-falsafiy bag'rikenglikni qaror toptirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boltayev.A.A. Muhyiddin ibn Arabiy ta'limotida umuminsoniy qadriyatlar. "Globalashuv, modernizatsiya va tolerantlik: muammolar, yechimlar va istiqbollor" O'zbekiston Respublikasi FA I.M. Mo'minov nomidagi falsafa va huquq instituti, Toshkent, 2009. 26–27-betlar.

2. Boltayev.A.A. Ibn Arabiy qalb kashshofi. "O'zbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari" mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Toshkent, 2011. 259–264-betlar.

3. Ibn Taymiya. Ibtalu vahdatil vujud. Quvayt: Jam'iyat ihyoit turosil islomiy, 1992. 167-bet.

4. Ibn Taymiya. Ar-Raddu alal mantiqiyin. Bayrut: Darul fikr. 1985. 468-bet.

5. Az-Zahabiy. Siyaru a'lamin nubala. Bayrut: Muassasatur risala. 1971. 48-bet.

6. Xolmuminov, Ja'far. Jomiy va vahdat ul-vujud ta'limoti. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.